Inkluziv maktab sharoitida kichik maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy-perseptiv tajribani shakllantirish	835
Karimova Zulfiya Abduraxmanovna	
TEACCH konsepsiyasi – autizm va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni davolash va o'qitish dasturi.....	839
Murodova Sarvigul Raxim qizi	
Модернизация кадровой политики дошкольных учреждений через инновационные мониторинговые механизмы	843
Ким Нигора Каримовна	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini ergonomik yondashuv asosida rivojlantirish	847
Usmonova Xafiza	
Pedagogik improvizatsiya asosida talabalar o'quv faoliyatini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari	852
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna	
Talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish	857
Nurmatova Madina Odiljon qizi, Qo'shoqova Farangiz Azizbek qizi	
O'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash – ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida	861
Xaydarov Oxunjon Murodjonovich	
Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik ahamiyati	866
B. Normamatova	
Talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishning variativ modeli va uning asosiy komponentlari	869
Bahranova Hulkar Bahran qizi	
Konvensial yondashuv asosida talabalarni mustaqil ta'lim olish samaradorligining didaktik imkoniyatlarini rivojlantirish.....	872
Berdiyev Bahodir Ravshanovich	
Kontekstli yondashuvga asoslangan o'quv-ijodiy faoliyatning turlari	875
Botirova Zilola Nodirovna	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish.....	878
Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich sinflarida ta'lim o'quvchilarga sonlar haqida ma'lumot berish	882
Hakimova Zulfizar Umrzoq qizi	
Biologiya ta'limida elektron ta'lim (E-Learning) va aralash ta'lim (Blended Learning) texnologiyalarining samaradorligini tahlil qilish.....	886
Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li	
Alisher Navoiy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid fikrlari tahlili.....	891
M. Ibragimova	
Integratsiyalashgan dars ta'limiy faoliyat samaradaorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida	894
Mahmatqulova Xosiyat Bobomurod qizi	
Tarbiyalanuvchilarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmunini ochib berish.....	897
Murodillayeva Durdona Dilmurodovna	
Sun'iy intellekt davrida bolalar adabiyoti: raqamli qahramonlar, interaktiv ertaklar va bolaning ijodiy tafakkuri rivoji	900
Normurodova Nigora Abdusattorovna, Sharipova Iroda Rashid qizi	
Qadimgi va o'rta asr mutafakkirlarining matematika fanining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni	903
Quvvatova Ozoda Gulbek qizi	
Shaxs xolistik rivojlanishi – psixologik-pedagogik muammo sifatida	906
Rashidova Xurriyat Sulaymonovna	
Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	908
Ravshanova Kamola Toxirovna	
Matematikaga rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar	911
To'rayeva Kamola Vosidjon qizi	



Umumiy o'rta ta'limda mexanika masalalarini yechish metodikasi va o'qitish jarayonining didaktik asoslari	914
<i>Toxirova Maxfuzaxon Otaqo'ziyevna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagogalarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish	916
<i>Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi</i>	
TRIZ va kreativ pedagogika: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish	919
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxammatovna, Fayzullayeva Nazokat Uchqunovna</i>	
Maktab ta'limi uchun mobil ilova yaratishda MIT APP inventor platformasidan foydalanish	922
<i>Tangirov Xurram Ergashevich, Xo'jamqulova Dilso'z Bahodir qizi</i>	
Pedagogical Methods for Improving Students' Creative Thinking as they Learn	927
<i>Akhmedov Alisher Astanovich, Yarmuhamedov Nabijon</i>	
Implementation Outcomes and Development Prospects of the Social And Legal Club in the Secondary Vocational Education System as a Tool for Delivering Social Services.....	932
<i>Makhmudova Ugiloy Baxtiyarovna</i>	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	935
<i>Chakkanov Fakhriddin Xusanovich</i>	
Current Research and Suggestions on The Impact of Physical Activity on Adolescents' Mental Health	938
<i>Irgashev Shokhrukh Khasanovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan zamonaviy pedagogik talablar	941
<i>Gaziyeva Nigora shamsiddinovna, Abdiraxmonova Nilufar Muxiddinovna</i>	
Eshituv va fonematik idrokni rivojlantirishda neyropsixologik o'yin usullari	945
<i>Lutfullayeva Sadoqat Muzaffar qizi, Axmedova Zuxra Mirzabekovna</i>	
Metodlarning turlari va nazariy asoslari.....	948
<i>Murodova Durdona Rayimjon qizi, Ashurova Hulkaroy Ma'rufjon qizi</i>	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tizimli tafakkurini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligini aniqlash: pedagogik tajriba-sinov natijalari va matematik-statistik tahlil	952
<i>Mustafaqulova Dildora Ismatullayevna</i>	
Raqamli texnologiya ta'limga imkoniyatmi yoki xavf?	960
<i>Otanazarova Mehriniso Abdusharif qizi</i>	
Zamonaviy sharoitlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish uslubiyoti va unga qo'yilayotgan talablar	963
<i>Ortiqova Nargiza Akramovna, Suvonqulova Muxabbat Otamurot qizi</i>	
Interactive Grammar Learning Methods and their Significance for Non-Philological Education Students .	969
<i>Almatova Umida Islomovna</i>	
Berilganlar bazasi konsepsiyalarining evolyutsiyasi va zamonaviy rivojlanish bosqichlari.....	975
<i>Nosirova Shohista Elmurodovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda tarbiyachining pedagogik ahamiyati.....	980
<i>Kadirova Shaxnoza Xudoyberdiyevna</i>	
Autentik matnlar orqali o'quvchilarda o'qishga motivatsiya shakllantirish	987
<i>Usmonova Gulhumor Qo'ldashboy qizi</i>	
Zamonaviy ta'lim tizimida "Aralash ta'lim (Blended Learning)" texnologiyasining joriy etilishi.....	991
<i>Sh. D. Ablakulov</i>	
Ko'paytirish amalini o'rgatishga zamonaviy yondashuv (suv vositasida)	995
<i>Ismoilov Bobur Toxirovich</i>	
WEB dasturlash fanining ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari.....	1000
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Abdullayev Javohirbek Zokirjon o'g'li</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodik xususiyatlari	1005
<i>Sattorova Go'zalxon Mamadaminovna</i>	
Reflective Technologies of Development of Sanogen Thinking in Students.....	1010
<i>Ismailov Murodulla Kahramonovich</i>	
Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	1014
<i>Avazova Farangiz Ixtiyor qizi</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Surxon adabiy maktabi: Usmon Azim va Shafolat Rahmatulla Termiziy ijodi..... 1022 <i>Xolboyeva Dilafuz Xayrulla qizi</i>
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy mazmundagi masalalar asosida ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish 1026 <i>Ahmadjonova Intizor Iqboljon qizi, Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>
	Tarbiyalanuvchilarda miqdor va son tushunchalariga doir ta'limiy o'yin faoliyatlari jarayonida ixtiyoriy diqqatini shakllantirish..... 1030 <i>Quysinova Shahlo Nasim qizi</i>
	Alaliyali bolalar bilan logopedik ishning tizimli yondashuvi 1035 <i>Irkinova Irodaxon Temirovna</i>
	Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarni eshitish va talaffuzga paralel ravishda rivojlantirish: integratsiyalashgan yondashuv 1040 <i>Raximova Mahliyo Xasanboy qizi</i>
	Gender xususiyatlarning ijtimoiy shartlangan ko'rinishlari 1043 <i>Yulduzxon Mirzaaxmedova</i>
	Oliy ta'limda muhandislik fizikasi fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish 1047 <i>Butayeva Nargiza Buriboyovna</i>
	Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida shakllantirish modeli..... 1051 <i>Askarova Zilolaxon Nurmuhamadovna</i>
	Sun'iy intellekt asosida ta'limni individuallashtirishning pedagogik asoslari 1055 <i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Toxirova Muattarxon Isroil qizi</i>
	Matematik fizika tenglamalari fanini o'qitishda yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limining o'rni va ahamiyati 1060 <i>Murzambetova Mexriban Begdullayevna</i>
	Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodikasi 1064 <i>Fayziyeva Madinabonu Sohibjon qizi</i>
	O'tkir Hoshimovning realistik xarakter yaratish mahorati..... 1070 <i>Nortojiyev Muxammad</i>
	Bolalar adabiyoti asarlarini tahlil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlari 1073 <i>Xujamqulova Iroda Faxriddinovna</i>
	O'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bolalarda bilish faolligini rivojlantirishdagi ahamiyati 1078 <i>Achilov Obid Muzrobovich</i>
	Maktab o'quvchilarida mustaqil ta'limni tashkil etish, o'tkazish va baholash metodikasi..... 1083 <i>Musayeva Gulnoza Yo'ldosh qizi</i>
	Bo'lg'usi pedagoglarda estetik kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida..... 1087 <i>Bozorova O'g'iloy Komilovna</i>
	"Taskari teorema" innovatsion pedagogik texnologiyasi 1093 <i>Yandasheva Sevara Ne'matjonovna</i>
	Technologies for Forming Students' Communicative Competence Based on Interdisciplinary Integration..... 1096 <i>Umida Eshmirzayevna Mamatkulova</i>
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda elementar matematikaning o'rni 1101 <i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li</i>
	Zamonaviy muhandisni tayyorlash texnologiyasi – kasbiy kompetentlikni shakllantirish imperativi sifatida 1105 <i>Axmedova Aziza Shokir qizi</i>
	Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri 1110 <i>Djabbarov Axror Islomovich</i>
	Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish 1114 <i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>
	O'quvchilarni tayanch hayotiy kompetensiyalar orqali iqtisodiy bilimlarini shakllantirish 1118 <i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda interfaol ta'lim metodlarining pedagogik samaradorligi..... 1123 <i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Oripova Shaxzodaxon Otamurod qizi</i>



Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy tarbiya faoliyatiga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari.....	1127
Rahmatjonzoda Ahrorjon Ahmad o'g'li	
Ta'lim transformatsiyasi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida	1130
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda oila va maktab hamkorligi	1135
Mamadaliyeva Gavxarxon Asiljonovna	
Pedagogik amaliyotda pedagogik mahoratni rivojlantirishning nazariy–amaliy asoslari	1139
Yunusova Feruza Maxamadolim qizi	
O'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishning pedagogik aspektlari	1143
Hasanova Gulmira Hoshimjanovna	
Maktab yoshidagi o'quvchilarga she'riy asarlarni o'qitishga doir ayrim metodlar (O. Matjonning "Orolga yordam" she'ri asosida).....	1147
Alxiyeva Sitora Raximqul qizi	
Sport travmalaridan keyingi reabilitatsiyada jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	1150
Begimqulov Oltiboy Jo'rayevich	
Demografik vaziyatning mohiyati va tarkibi	1155
Bomurodov Sanjar Bekmurodovich	
Problems of Developing the Terminology System of the Uzbek Language.....	1159
Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
Tarbiya darolarida guruh va jamoaviy o'yinlar orqali muloqot madaniyatini shakllantirish.....	1163
Menlibayeva Azima Oralbayevna	
Raqamlashtirilgan ta'limda talabalarni tanqidiy fikrlash asosida kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari.....	1166
Nuriddinova Xurshida Narpulatovna	
Raqamli ta'lim vositalarining boshlang'ich ta'limdagi afzalliklari	1169
Sattorova Mohira	
The Importance of Teaching Physics Through Modern Educational Trends	1172
Sharofutdinov Ikboljon Usmonjon ugli	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy rivojlanishida gender rollar nazariyasining amaliy ahamiyati	1176
Tolipova Noilaxon Nodir qizi	
Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish	1183
Umida Bovanova Abduvahobovna, Bo'riboyeva Navbahor Faxriddinov	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari	1186
Xaqberdiyeva Sh. T.	
Ingliz tili darolarida kreativlikni oshirishda kuzatiladigan muammolar va ularni yechishga doir pedagogik yondashuvlar.....	1190
Yusupov Lutfullo Sayitturayevich	
Informatika fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari ("Axborotlarni kodlash" mavzusi misolida).....	1194
Temirova Gulbahor G'ulomovna, Yusupova Nodira Nurdinovna	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish	1201
Zokirova Sohiba Muxtoralievna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi	
Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari	1204
Astanakulova Manzura Buribayevna	

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY MAZMUNDAGI MASALALAR ASOSIDA IJODIY FIKRLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Ahmadjonova Intizor Iqboljon qizi
Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy mazmundagi masalalar orqali ijodiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning samarali metodik yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida masalalarning tanqidiy mohiyatini aniqlash, ularni o'quvchilarning intellektual rivojlanish darajasiga mos ravishda modellashtirish hamda tahlil va mantiqiy fikrlashni rag'batlantiruvchi topshiriqlar tizimini ishlab chiqishning asosiy tamoyillari ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, tanqidiy yondashuvga asoslangan masalalarning o'quvchilar faolligini oshirishdagi hamda muammoni mustaqil hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni amaliy misollar asosida ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, tanqidiy masalalar, ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, metodik yondashuv, kompetensiya, kognitiv faollik, ta'lim texnologiyalari, o'quv jarayoni samaradorligi.

Abstract: This article examines effective methodological approaches to developing creative thinking competencies in primary school students through critical-content-based tasks. The study substantiates the principles of identifying the critical nature of tasks, modeling them in accordance with students' cognitive development, and designing a system of activities that stimulate analytical and logical thinking. In addition, the role of tasks grounded in a critical approach in enhancing students' cognitive engagement and developing independent problem-solving skills is demonstrated through practical examples.

Key words: primary school, critical tasks, creative thinking, critical thinking, methodological approach, competence, cognitive activity, educational technologies, effectiveness of the educational process.

Аннотация: В данной статье рассматриваются эффективные методические подходы к развитию компетенции творческого мышления у учащихся начальной школы на основе задач критического содержания. Обоснованы принципы выявления критической сущности задач, их моделирования в соответствии с уровнем мышления учащихся, а также разработки системы заданий, стимулирующих аналитическое и логическое мышление. Кроме того, на практических примерах показана роль задач, основанных на критическом подходе, в повышении познавательной активности учащихся и развитии навыков самостоятельного решения проблем.

Ключевые слова: начальная школа, критические задачи, творческое мышление, критическое мышление, методический подход, компетентность, познавательная активность, образовательные технологии, эффективность образовательного процесса.

KIRISH

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish ustuvor pedagogik vazifa sifatida talqin qilinmoqda. Ta'lim standartlarida boshlang'ich sinf o'quvchisining nafaqat tayyor bilimlarni qabul qilishi, balki mustaqil fikrlashi, turli vaziyatlarni tahlil qilishi, muammoni hal etishning noodatiy yo'llarini izlay olishi muhim kompetensiya sifatida belgilangan. O'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyati, bir tomondan, faktlarga asoslangan bilimlardan foydalangan holda mulohaza yuritish, ochiq va izlanuvchan tafakkurni qabul qilishni anglatadi.



Shu o'rinda Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning quyidagi fikrlari yodga olinadi: "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak"¹.

O'sib kelayotgan o'quvchi-yoshlarimizda ham davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, tanqidiy tahlil ko'nikmalarini yoshligidan shakllantirib borilsa, ushbu o'quvchilar kelajakda yurtimizning yetuk kadrlari bo'lib yetishishiga zamin yaratiladi. Shu nuqtayi nazardan, tanqidiy mazmundagi masalalar o'zining muammoli tuzilishi, mantiqiy tahlilni talab qilishi va turli fikrlash strategiyalarini ishga solishi bilan o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tanqidiy mazmundagi masalalar o'quvchidan faktlar o'rtasidagi bog'liqlikni anglay olish, taxminlar ilgari surish, dalillash, taqqoslash, qaror qabul qilish kabi murakkab kognitiv jarayonlarni amalga oshirishni talab etadi. Bunday faoliyat esa tabiiy ravishda ijodiy fikrlashning faollashuviga olib keladi. Demak, ijodiy va tanqidiy fikrlashni parallel ravishda rivojlantirish imkonini beradigan metodik tizimni yaratish boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tanqidiy va ijodiy fikrlash masalasi bir qator psixolog va pedagog olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Tanqidiy fikrlash texnologiyasi XX asrning 80-yillarida AQShda shakllangan. Rossiyada ushbu texnologiya 90-yillarning oxiridan boshlab "Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'qish va yozish" nomi bilan ma'lum bo'lgan.

L. S. Vygotskiy proksimal rivojlanish zonasi hamda o'rganish va bolaning umumiy rivojlanishi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni asoslab bergan. K. Popper va R. Pol tanqidiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy asoslarini yoritgan. E. Braun va I. Bek metakognitiv ta'lim masalalariga e'tibor qaratgan.

Tanqidiy fikrlash texnologiyasini ishlab chiquvchilar – Kurtis Meredit, Charlz Templ va Ginni Still ushbu nazariy qarashlarni amaliyotga tatbiq etganlar. B. Blum tomonidan ishlab chiqilgan bilish darajalari tasnifi hamda R. Ennisning tanqidiy fikrlash mezonlari o'quvchilarda tafakkurni rivojlantirishning muhim ilmiy asosini tashkil etadi.

Ijodiy fikrlashga oid E. Torrans tomonidan taklif etilgan mezonlar – originallik, moslashuvchanlik, oqimlilik va aniqlik – o'quvchilarga beriladigan masalalar mazmunining asosiy yo'nalishini belgilashga xizmat qiladi. Shunday qilib, tanqidiy fikrlash alohida mahorat emas, balki bolaning rivojlanishi va ta'lim jarayonida bosqichma-bosqich shakllanadigan ko'nikma va qobiliyatlar majmuasidir.

O'zbekiston ta'lim standartlarida ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining funksional savodxonligi, ijodiy fikrlashi va muammoli vaziyatlarga moslashuvchan yondashuvi alohida kompetensiya sifatida belgilangan.

Shuningdek, quyidagi olimlar o'z tadqiqot ishlarida mazkur masalalarni keng yoritib berganlar.

1. **John Dewey** – amerikalik pedagog bo'lib, bilimning tajriba orqali o'zlashtirilishini ta'kidlagan va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda masalali ta'limni tavsiya etgan.
2. **Edward de Bono** – mantiqiy fikrlash metodlarini tanqidiy fikrni rivojlantirishda qo'llashni taklif qilgan hamda masalalar orqali o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish mumkinligini ko'rsatgan.
3. **Xolmadov Murod** – o'zbekistonlik olim bo'lib, masalalar va voqealar asosida o'quvchilarning muammolarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantirishga doir tadqiqotlar olib borgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning maqsadi tanqidiy mazmundagi masalalar asosida o'quvchilarning ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish hamda uning samaradorligini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonini o'rganish uchun quyidagi tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

1. **Eksperimental metod** – turli xil masala turlarini qo'llagan holda nazorat va eksperimental guruhlar bilan tajriba o'tkazish orqali natijalarni solishtirishga xizmat qiladi.
2. **Kuzatuv metodi** – o'quvchilarning masala yechish jarayonini kuzatish, ularning tanqidiy fikrlash jarayonlarini tahlil qilish imkonini beradi.
3. **So'rovnomasi metodi** – o'quvchilarning fikr-mulohazalarini o'rganish va ularning masala yechishga bo'lgan munosabatini aniqlashda qo'llaniladi.

1 SH.M.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017- yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 2017-yil 14-yanvar

4. **INSERT metodi** – o'quvchilarning matn yoki masala ustidagi faol fikrlash jarayonini belgilash va belgilar orqali boshqarishga yordam beradigan strategiya bo'lib, tanqidiy mazmundagi masalalarni tahlil qilishda ularning oldingi bilimlarini faollashtiradi, yangi ma'lumotni ajrata olishni ta'minlaydi hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

5. **Savol-javob metodi** – o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga jalb qilish maqsadida o'qituvchi tomonidan chuqur mulohaza yuritishni talab qiluvchi mantiqiy savollar berish orqali amalga oshiriladi.

Tanqidiy mazmundagi masalalar quyidagi ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi:

- sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash;
- mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish va baholash;
- turli nuqtayi nazarlardan yondashish;
- muammoga mos strategiya tanlash;
- original, noodatiy yechimlar topish.

Ijodiy fikrlashni shakllantiruvchi tanqidiy masalalar tizimi boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tayyorlanayotganda quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- o'quvchining mantiqiy tafakkurini faollashtirishi;
- turli yechimlarga ega bo'lishi;
- muammoli vaziyatni tasavvur qilish imkonini berishi;
- o'quvchini izlanishga undashi;
- bahs-munozara uchun asos bo'lishi.

Masalan: Xonaning to'rtta burchagida to'rtta mushuk o'tiribdi. Har bir mushuk qarshisida uchtdan mushuk o'tiribdi. Har bir mushuk dumida bittadan mushuk o'tiribdi. Hammasi bo'lib xonada nechta mushuk bor? Ushbu masalada o'quvchilar masalaning uy hayvoni – mushuk haqidaligini anglab, holatni to'g'ri tasavvur qilishlari va masala shartini mantiqiy tahlil qilishlari talab etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'quv jarayonida o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda tanqidiy mazmundagi masalalar muhim vosita hisoblanadi. Ular nafaqat bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga, balki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, turli yechimlarni topish, mantiqiy xulosalar chiqarish hamda o'z fikrini ifodalash kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Shu o'rinda o'quvchilarni nafaqat tanqidiy mazmundagi masalalarni yechish qobiliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda, tanqidiy fikrlash kompetensiyasini ham izchil shakllantirib borish muhim ekanligini ta'kidlash zarur.

Tanqidiy fikrlashga o'rgatish o'quvchilarning muvaffaqiyatga erishishidagi asosiy omillardan biri bo'lib, boshlang'ich sinf matematika darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda yangi pedagogik texnologiyalar va didaktik o'yinlardan, muammoli savol va topshiriqlardan, turli xil rasm va boshqotirmalardan dars jarayonida oqilona hamda bolaning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda foydalanish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. Hozirgi kunda o'qituvchilarning raqamli texnologiyalardan dars mashg'ulotlarida to'g'ri foydalana olishi va o'quvchilarga bilim berishda raqamli ta'lim muhitini tashkil eta bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning natijasida o'quvchilarning mustaqil o'rganishi, shaxsiy o'rganishga moslashishi hamda o'z ustida ishlashi kabi qobiliyatlari rivojlanadi².

Zamonaviy inson uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni tasniflashga urinayotgan xalqaro tashkilotlar raqamli, axborot va ilmiy savodxonlikning ahamiyati haqida fikr yuritmoqda. Aksariyat hollarda ushbu savodxonlik turlari bir-birini to'ldiradi³.

Tanqidiy fikrlashning muhim afzalligi shundaki, u e'tiborsiz bildirilgan fikrlarni, noaniq tushunchalarni hamda yolg'on dalillarni aniqlash va fosh etish imkonini beradi. Biroq uning kamchiligi shundaki, u har doim ham yaratuvchi va konstruktiv kuchga ega emas. Tanqidiy fikrlash g'oyalarni mustahkamlaydi, biroq doimo konstruktiv va yaratuvchan fikrlash bilan ta'minlamaydi.

Quyidagi tanqidiy mazmundagi masalalarni I–IV–sinf o'quvchilari bilan matematika darslarida bajarish tavsiya etiladi. Bunday turdagi masalalar o'quvchilarning tanqidiy, mantiqiy hamda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

2 Akramjon O'ktamjonovich Mirzayev. Mamlakatimiz ta'lim tizimida raqamlashtirish va raqamli dunyoda o'qitish va o'rganishning mavjud imkoniyatlari. Academic Research in Educational Sciences, 2–jild, 12–son, 2021–yil

3 Akramjon O'ktamjonovich Mirzayev. O'quvchilarning raqamli dunyoda o'rganish konsepsiyasi bo'yicha savodxonligini rivojlantirish. Scientific Progress, 2–jild, 8–son, 2021–yil, 832–bet



1-topshiriq. Xo'roz tarozida ikki oyog'ida turgan holda o'lchanganda 3 kg chiqdi. Xo'roz bir oyog'ida turgan holda o'lchanganda necha kilogramm keladi? (*Javob: 3 kg*)

2-topshiriq. Stolda 70 dona qog'oz turibdi. Har 10 soniyada 10 ta qog'ozni sanash mumkin. Bu holda 50 ta qog'ozni sanab olish uchun necha soniya vaqt ketadi? (*Javob: 20 soniya. 10 soniyada birinchi o'ntasi, keyingi 10 soniyada ikkinchi o'ntasi sanaladi. Natijada stolda 50 ta qog'oz qoladi.*)

3-topshiriq. 500 metr masofaga yugurish musobaqasida 5 nafar sportchi qatnashdi. Har bir sportchi qancha masofaga yugurgan? (*Javob: 500 m*)

4-topshiriq. Akmal, Jasur, Madina va Umida Yangi yilda kitob, koptok, rasm chizish uchun to'plam va stol o'yini kabi sovg'alarni olishdi. Agar quyidagilar ma'lum bo'lsa, ularning har biri qanday sovg'a olganini aniqlang:

1. Jasur sovg'a sifatida kitob olmadi;
2. Madina sovg'a sifatida stol o'yini ham, kitob ham olmadi;
3. Akmalning sovg'asi dumaloq.

Ushbu ijodiy topshiriq o'quvchi tomonidan tanqidiy va mantiqiy fikrlash asosida yechiladi. Bunda o'quvchi quyidagicha mushohada yuritishi mumkin: Akmalning sovg'asi dumaloq bo'lgani sababli bu koptok bo'lishi ehtimoli mavjud. Demak, koptok Akmalga berilgan. Jasur kitob olmaganligi sababli unda ikki variant – rasm chizish uchun to'plam yoki stol o'yini qoladi. Madina stol o'yini va kitob olmaganligi aniq bo'lgani uchun u rasm chizish uchun to'plam oladi. Qolgan sovg'alar – kitob va stol o'yini bo'lib, Jasur kitob olmagan uchun unga stol o'yini, kitob esa Umidaga berilgan bo'ladi.

Hayotiy mazmunga ega mantiqiy masala va topshiriqlar o'quvchiga zavq bag'ishlaydi. O'quvchi topshiriqni yechish yo'llarini izlaydi. Bunday topshiriqlar nafaqat matematik bilim va malakalarni mustahkamlaydi, balki o'quvchining tanqidiy tafakkurini rivojlantiradi, uni izlanishga, topqirlikka va maqsad sari intilishga undaydi. Darsliklarda uchraydigan shunga o'xshash topshiriqlar o'quvchilarning diqqatini darsga jalb etishda va ularning ijodiy faoliyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tanqidiy mazmundagi masalalar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy va ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish jahon va milliy ta'lim tizimlarida muhim o'rin tutadi. Ushbu jarayon o'quvchilarni muammoni mustaqil aniqlash va hal qilishga, fikrlarini mantiqan izchil bayon etishga hamda qarorlarini ishonchli asoslashga o'rgatadi. Masalalar, shuningdek, o'quvchilarning tahliliy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib, ularni murakkab vaziyatlarni turli nuqtayi nazardan baholashga undaydi.

Masalalar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini amaliyotga tatbiq etishni, muqobil yechimlar ishlab chiqishni va tanqidiy qarorlar qabul qilishni o'rganadilar. Muammoni tahlil qilish, variantlarni solishtirish va natijalarni baholash jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini asoslab berish qobiliyatini mustahkamlaydilar. Shu bilan birga, ular nafaqat individual bilim va ko'nikmalarini rivojlantiradilar, balki taqqoslash, baholash va konstruktiv tanqid qilish qobiliyatlarini ham oshiradilar.

Bundan tashqari, tanqidiy mazmundagi masalalar o'quvchilarda hamkorlik va guruhda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Muammolarni yechish jarayonida o'quvchilar bir-birlarining fikrlarini tinglash, tahlil qilish hamda birgalikda qaror qabul qilishni o'rganadilar. Bu esa jamoaviy fikrlash, samarali muloqot va tanqidiy munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, tanqidiy mazmundagi masalalarni dars jarayoniga integratsiya qilish o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib, ularni nafaqat o'quv faoliyatida, balki hayotiy vaziyatlarda ham muvaffaqiyatli qarorlar qabul qilishga tayyorlaydi. Ushbu metodika boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash kompetensiyasini tizimli va maqsadli ravishda rivojlantirish imkonini beradi, pedagogik jarayon samaradorligini oshiradi hamda o'quvchilarda mustaqil, mantiqan izchil va ijodiy yondashuvni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press. Tegishli bo'limlar: "Tool and Symbol in Child Development" (pp. 10–16), "The Development of Perception and Attention" (pp. 15–16).
2. Shoyusupova, Sh. Sh. (2024). Boshlang'ich ta'lim talabalarini tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish usullari. Termiz davlat universiteti, Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrasini. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Termiz, 2024.
3. G'afforov, M. (2019). Masalalar orqali tanqidiy fikrlashni o'rgatish. Samarqand: SamDU nashriyoti.
4. Karimova, N. (2021). O'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish usullari. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Mirzaeva, D. (2022). Masalalar va ularning ta'limdagi o'рни. Toshkent: O'zbekiston ta'limi.
6. Nematov, S. (2018). Tanqidiy fikrlash: nazariya va amaliyot. Buxoro: BuxDU nashriyoti.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.